


III. SANOAT

Dastlabki ma'lumotlar bo'yicha 2025- yil yanvar-mart oylarida viloyat korxonalari tomonidan 7 418,5 mlrd so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib, 2024- yilning mos davriga nisbatan sanoat ishlab chiqarishning fizik hajm indeksi* 109,2 % ni tashkil etdi.

Jami sanoat ishlab chiqarish fizik hajmi o'sishining asosiy omili bo'lib, ishlab chiqaradigan (qayta ishlash) sanoatining -9,4 % ga (jami sanoat ishlab chiqarish hajmining 82,6 % ni), suv bilan ta'minlash: kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish sanoatining – 94,5 % ga (jami sanoat ishlab chiqarish hajmining 1,1 % ni) o'sishi kuzatildi.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat ishlab chiqarish tarkibi (jami sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmiga nisbatan % da)



Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni
ishlash



Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va
havoni konditsiyalash




Ishlab chiqaradigan sanoat



Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi,
chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish


*Sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksi ishlab chiqarilgan mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) hajmining taqqoslanadigan davrlardagi o'zgarishini tavsiflovchi nisbiy ko'rsatkichdir.

Asosiy iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat ishlab chiqarish hajmi, mlrd so'mda




B– Tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash, **C**-Ishlab chiqaradigan sanoat **D**-Elektr, gaz, bug‘ bilan ta‘minlash va havoni konditsiyalash, **E**-Suv bilan ta‘minlash; kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig‘ish va utilizatsiya qilish.

Asosiy iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat ishlab chiqarish, FHI* % da



Tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash sanoatining jami sanoat mahsulotlari hajmidagi ulushi, % da



Togʻ-kon sanoati va ochiq konlarni ishlashi korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 20,2 mlrd soʻmni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,2 % ni tashkil etdi.

Ishlab chiqariladigan sanoat (qayta ishlash sanoati)

2025- yil yanvar-mart oylarida ishlab chiqaradigan sanoat korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmi 6 125,9 mlrd soʻmni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 82,6 % ni tashkil etdi.

2025- yil yanvar-mart oylarida ishlab chiqaradigan yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish

Sanoat mahsulotlari	2024-yil yanvar-mart	2025-yil yanvar-mart
Paxta chigiti, tonna	17 522,2	7 303,2
Paxta tiviti (lint), tonna	686,4	328,7
Ishlov berilgan suyuq sut, tonna	10 997,0	11 122,0
Yumshoq bugʻdoy va spelta uni, tonna	10 206,1	5 003,5
Tozalanmagan paxta yogʻi, tonna	8 433,2	2 859,1
Tozalangan paxta yogʻi va uning fraksiyalari (kimyoviy modifikatsiya qilinganlaridan tashqari)	4 411,0	1 731,7
Paxtadan yigirilgan tikuv iplari, tonna	-	1 703,6
Mashinada yoki qoʻlda toʻqilgan boshqa trikotaj polotnolar, tonna	884,9	1 792,9

2025-yilning yanvar-mart oylarida viloyatda 7 303,2 tonna paxta chigiti (2024-yilning yanvar-mart oyiga nisbatan 58,3 % ga kamaygan), 328,7 tonna paxta tiviti(lint) (52,1 % ga kamaygan), 11 122,0 litr Ishlov berilgan suyuq sut mahsulotlari (1,1 % ga koʻpaygan), 173,4 ming tonna yumshoq bugʻdoy va spelta uni (51,0 % ga kamaygan) hamda 2 859,1 tonna tozalanmagan paxta yogʻi (66,1% ga kamaygan) ishlab chiqarilgan.


**2025- yil yanvar-mart oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha
sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish**

Faoliyat turlari	mlrd so'm	ulushi, % da
Ishlab chiqaradigan sanoat	6 125,9	100,0
oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish	1 186,9	19,4
ichimliklar ishlab chiqarish	169,3	2,8
tamaki mahsulotlari ishlab chiqarish	-	-
to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish	1 883,8	30,8
kiyim ishlab chiqarish	856,6	14,0
teri va unga tegishli mahsulotlar ishlab chiqarish	247,4	4,0
yog'och va po'kak buyumlar (mebeldan tashqari), pohl va to'qish uchun materiallardan buyumlar ishlab chiqarish	14,1	0,2
qog'oz va qog'oz mahsulotlari ishlab chiqarish	67,6	1,1
yozilgan materiallarni nashr qilish va aks ettirish	6,7	0,1
koks va neftni qayta ishlash mahsulotlari ishlab chiqarish	2,8	0,0
kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish	155,6	2,5
asosiy farmatsevtika mahsulotlari va preparatlari ishlab chiqarish	39,6	0,6
rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish	102,4	1,7
boshqa nometal mineral mahsulotlari ishlab chiqarish	324,5	5,3
metallurgiya sanoati	215,8	3,5
mashina va uskunalardan tashqari tayyor metall buyumlar ishlab chiqarish	194,4	3,2
kompyuterlar, elektron va optik mahsulotlar ishlab chiqarish	28,8	0,5
elektr uskunalari ishlab chiqarish	318,7	5,2
boshqa toifalarga kiritilmagan mashina va uskunalari ishlab chiqarish	25,8	0,4
avtotransport vositalari, treylerlar va yarim pritseplar ishlab chiqarish	6,1	0,1
boshqa transport uchkunlari ishlab chiqarish	0,2	0,0
mebel ishlab chiqarish	108,0	1,8
boshqa tayyor buyumlar ishlab chiqarish	163,4	2,7
mashina va uskunalarni ta'mirlash va o'rnatish	7,5	0,1

Ishlab chiqaradigan sanoat texnologik tarkibi


Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida yuqori texnologiyali tarmoqning ulushi 1,1 % ni (2024- yil yanvar-mart oylarida – 1,3% ni), oʻrta-yuqori texnologiyalarni ulushi 8,3 % ni (6,6 %), oʻrta-quyi texnologiyali ishlab chiqarishning ulushi - 13,8 % ni (14,4 %), quyi texnologiyali ishlab chiqarishning ulushi esa 76,8 % ni (77,9 %) tashkil etdi.

2025- yil yanvar-mart oylarida ishlab chiqarishning texnologik tarkibi boʻyicha ishlab chiqaradigan sanoat tarkibi, % da



Elektr, gaz, bugʻ bilan taʼminlash va havoni konditsiyalash

Elektr, gaz, bugʻ bilan taʼminlash va havoni konditsiyalash korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 1 190,2 mlrd soʻmni (oʻtgan yilning mos davriga nisbatan 101,6 % ni) tashkil etdi.



Elektr, gaz, bug‘ bilan ta’minlash va havoni konditsiyalash sohasida yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish
(2025- yil yanvar-mart)

	2025- yil	2024- yil	2024- yilga nisbatan, Farqi (+/-)
Elektroyenergiya - mln kVt/s	1 281,5	1 506,9	-225,4
Issiqlik energiyasi – ming Gkal	20,9	47,2	-26,3

Suv bilan ta’minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilish

Suv bilan ta’minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilish korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmi 82,1 mlrd so‘mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat hajmining 1,1 % ni) tashkil etdi.

Sanoat mahsulotlari	2024-yil yanvar-mart	2025-yil yanvar-mart	2024- yil yanvar-mart oylariga nisbatan, % da
Tabiiy suv; suvni tozalash va suv ta’minoti xizmatlari- mlrd so‘m	32,5	32,5	100,0
Oqava suvlarning shlami - mlrd so‘m	2,3	2,9	126,1
Xavfli bo‘lmagan chiqindilarni yig‘ish xizmatlari- mlrd so‘m	14,2	12,2	85,9

Tuman(shahar)larning sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishi

Tuman (shahar)larning sanoat salohiyatini oshirish bo‘yicha amalga oshirib kelinayotgan izchil choralar natijasida Chortoq tumani (2025- yilning yanvar-mart oylariga nisbatan 123,6 % ga), Kosonsoy tumani (116,8 % ga), Uychi tumani (110,6 % ga), hamda Yangiqo‘rg‘on tumani (109,1 % ga) sezilarli darajada ishlab chiqarish fizik hajmi indeksining o‘sishi ta’minlandi.

	Sanoat mahsulotlari (mlrd so‘m)	Jamiga nisbatan ulushi, % da	2024- yil yanvar-mart oylariga nisbatan, % da
Viloyat bo‘yicha jami	7 418,5	100,0	109,2
Namangan sh.	1 958,2	26,4	106,3
Mingbuloq	322,4	4,3	106,2
Kosonsoy	466,6	6,3	116,8
Namangan t.	341,1	4,6	110,9
Norin	95,3	1,3	107,1
Pop	168,6	2,3	108,2
To‘raqo‘rg‘on	1 382,8	18,6	98,9
Uychi	484,7	6,5	110,6
Uchqo‘rg‘on	282,5	3,8	101,5
Chortoq	245,1	3,3	123,6
Chust	729,8	9,8	114,1
Yangiqo‘rg‘on	105,3	1,4	109,1

**Tuman(shahar)lar bo'yicha sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish
hajmi, indeksning o'sish sur'atlari**
(2025- yil yanvar-mart)

(o'tgan- yilning tegishli davriga nisbatan o'sish sur'ati % da)




Viloyatda sanoat ishlab chiqarish hajmi tarkibida eng ko'p Namangan shahri (viloyat sanoat ishlab chiqarish hajmning 26,4 % ulushini), To'raqo'rg'on (18,6 %), Chust (9,8 %), Uychi tumani (6,5 %), Kosonsoy tumani (6,3 %), Namangan tumani (4,6 %) hissasiga to'g'ri kelmoqda.


Aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning hududlarga nisbatan ko'rilganda, To'raqo'rg'on tumanida 5 503,1 ming so'm, Namangan shahrida 2738,3 ming so'm, Chust tumanida 2499,2 ming so'm, Mingbuloq tumanida 2 302,5 ming so'm, Uychi tumani 2 036,0 ming so'm, Kosonsoy tumanida 1 997,8 ming so'm tashkil etib, boshqa tumanlarga nisbatan yuqori ko'rsatkichni tashkil etmoqda.

Tuman (shahar)lar kesimida aholi jon boshiga o'rtacha sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmining yuqori o'sish sur'atlari Norin tumanida (2025- yil yanvar-mart oylariga nisbatan 106,9 %), Chortoq (121,2 %), Kosonsoy (114,3 %), Chust (111,9 %) va Namangan (108,4 %) tumanlarida kuzatildi. Shu bilan birga, Uchqo'rg'on tumanida (99,7%) va To'raqo'rg'on tumanida (96,7 %) o'sishning past sur'atlari kuzatildi.

Tuman(shahar)larning viloyatdagi jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi, % da
(2025- yil yanvar-mart)




Tuman(shahar)lar bo'yicha aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi, ming so'mda
(2025- yil yanvar-mart)




**Chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalar tomonidan
sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilishi**

Hisobot davrida xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar tomonidan 4 878,5 mlrd soʻmlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan boʻlib, umumiy ishlab chiqarishdagi ulushi hisobot davrida 15,3 % ni tashkil etdi.

**Chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalar tomonidan sanoat mahsulotlari
ishlab chiqarish umumiy hajmdagi ulushi, % da.**



**Hududlar boʻyicha chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalar mahsulotlarini
sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi, % da
(2025- yil yanvar-mart)**



**2025- yil yanvar-mart oylarida aholi jon boshiga to‘g‘ri keladigan sanoat
mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi va o‘sish sur‘atlari**


	Aholi jon boshiga (ming so‘mda)	2024- yil yanvar-mart oylariga nisbatan, % da
Viloyat bo‘yicha	2 363,9	106,3
Namangan sh.	2 738,3	103,8
Mingbuloq	2 302,5	104,1
Kosonsoy	1 997,8	114,3
Namangan t.	1 726,0	108,4
Norin	531,2	105,1
Pop	701,8	106,3
To‘raqo‘rg‘on	5 503,1	96,7
Uychi	2 036,0	108,2
Uchqo‘rg‘on	1 494,2	99,7
Chortoq	1 116,1	121,2
Chust	2 499,2	111,9
Yangiqo‘rg‘on	434,5	107,0

Sanoat ishlab chiqarishda kichik biznesning hissasi

Hisobot davrida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan 3 305,2 mlrd so‘mlik sanoat mahsuloti ishlab chiqarilib, uning umumiy ishlab chiqarish hajmidagi ulushi 44,6 % ni tashkil etdi.

Tuman (shahar) lar kesimida kichik biznesning sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi eng yuqori ulushi Yangiqo‘rg‘on (jami sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi ulushi 100,0 %) va Norin tumanlarida (99,8%) kuzatildi. Shu bilan birga, eng kichkina ulush To‘raqo‘rg‘on (6,2 %), Mingbuloq (15,5 %), Chust (16,1 %) tumanlarida kuzatildi.

Tuman va shaharlarning kichik biznesdagi ulushi, % da (2025-yil yanvar-mart)



Tayyor mahsulotlar, butlovchi qismlar va materiallar ishlab chiqarishni mahalliyashtirish dasturining amalga oshirilishi

Viloyatda sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishining rivojlanishiga tayyor mahsulotlar, butlovchi qismlar va materiallar ishlab chiqarishni mahalliyashtirish dasturining amalga oshirilishi ham o'z ta'sirini ko'rsatdi. Mazkur dasturga kiritilgan 89 ta loyiha bo'yicha 527,7 mlrd so'mlik mahsulotlar ishlab chiqarildi.

	2025-yil yanvar-mart	2024-yil yanvar-mart
Loyihalar soni	89	119
Korxonalar soni	63	91
Ishlab chiqarish hajmi (Mlrd so'm)	527,7	441,1
Yaratilgan yangi ish o'rinlar (birlikda)	279	504

**Faoliyat yuritayotgan va yangi tashkil etilgan
sanoat korxonalari**

Bugungi kunda viloyatda 4 031 ta sanoat korxonalari faoliyat ko'rsatayotgan bo'lib, ulardan 1 507 tasi Namangan shahriga, 302 tasi Kosonsoy, 297 tasi Namangan tumaniga, 286 tasi Chust, 283 tasi Uychi tumanlariga to'g'ri keladi.

2025- yil yanvar-mart oylarida viloyatda 140 ta sanoat sohasida korxonalar yangi tashkil etilgan bo'lib, ulardan 32,1 % ni Namangan shahri tashkil etadi.

**Faoliyat yuritayotgan va yangi tashkil etilgan
sanoat korxonalari soni, birlikda
(2025- yil yanvar-mart holatiga)**

	faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar soni (birlikda)		yangi tashkil etilgan korxonalar soni (birlikda)	
	2024- yil	2025- yil	2024- yil	2025- yil
Viloyat jami	4 526	4 031	217	140
Namangan sh.	1 628	1 507	61	45
Mingbuloq	107	108	12	6
Kosonsoy	354	302	17	10
Namangan t.	362	297	10	11
Norin	222	203	17	10
Pop	212	204	12	6
To'raqo'rg'on	322	273	16	8
Uychi	287	283	12	13
Uchqo'rg'on	261	182	14	8
Chortoq	183	159	8	5
Chust	363	286	12	7
Yangiqo'rg'on	225	227	26	11